

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

O'rinova Nilufar Muxammadovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika kafedrası professori, p.f.n.

Email: urinova.nm@mail.ru

Tel: +998939714032

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash bo'yicha tajriba-sinov ishlarini maqsadi, vazifalari, mezon, ko'rsatkich hamda tadqiqotni tashkil etish metodikasi yoritib berilgan. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarining uch bosqichida amalga oshirilgan ishlar mazmuni tahlil etilgan. Olingan natijalarning statistik tahliliga ko'ra umumiy samaradorlik 1,143 barobarga, yani 14,3% ga yuqori ekanligi statistik usullar bilan isbotlanganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tyutorlik faoliyati, mezon, ko'rsatkich, ta'limiy-dagnostik ta'minot, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье описываются цель, задачи, критерии, показатели и методология научного исследования по подготовке будущих учителей к тьюторской деятельности. Также, анализируется содержание работы, проведенной на трех этапах данного исследования. По результатам статистического анализа полученных данных показано, что общая эффективность в 1,143 раза выше, то есть на 14,3%, что статистически доказано.

Ключевые слова: тьюторская деятельность, критерии, показатели, образовательная и диагностическая поддержка, эффективность.

Abstract: This article describes the purpose, objectives, criteria, indicators, and methodology of a scientific study on preparing future teachers for tutoring activities. It also analyzes the content of the work carried out at three stages of the study. Based on a statistical analysis of the collected data, it is shown that overall effectiveness is 1.143 times higher (i.e., by 14.3%), which has been statistically proven.

Keywords: tutoring activities, criteria, indicators, educational and diagnostic support, effectiveness.

KIRISH

Dunyoda oliy ta'lim tizimini yangi paradigmalar asosida modernizatsiyalash, tyutorlik modelini joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning kooperativ modelini

takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish, psixologik, pedagogik va amaliy tayyorgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga alohida ustuvorlik qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqot ishimiz boshida tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari aniqlandi, bu esa mualliflik modeli asosida bakalavrlarni tyutorlik faoliyatiga professional tayyorlash samaradorligini obyektiv baholashga imkon berdi.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida tyutor sifatida faoliyat yuritish uchun bakalavrlarni professional tayyorlashning tizimli-funksional modelini tahlil qilish va uning samaradorligini tekshirish.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, tajriba-sinov ishning tashxis bosqichida qo'yiladigan vazifalar va metodikalar aniqlandi. Ular 1-jadvalda o'z ifodasini topgan.

1-jadval

Tajriba-sinov ishning vazifalari va metodikalari

Tajriba-sinov ishlarining vazifalari	Ilmiy-tadqiqot metod va metodikalari
1. Bo'lajak o'qituvchilar uchun tyutorlik faoliyatiga dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlash va sinov dasturini ishlab chiqish; Talabalarning tyutorlik faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirish.	Suhbat, anketa, esse,
2. Tajriba-sinov mezon, daraja va ko'rsatkichlarini aniqlash.	Suhbat, anketa
3. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tizimli-funksional modeli samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash.	Test, mustaqil ish, portfolio, anketa, "Tyutorlik faoliyati asoslari" elektiv kursni o'zlashtirish natijalari
4. Tajriba-sinov natijalarni matematik-statistik tekshirish.	Student mezoni

Tajriba-sinov jarayonda nazariy (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya, deduksiya) va empirik (kuzatish, suhbat, so'rovnoma, ekspert bahosi, faoliyat natijalarini o'rganish, intervyu, pedagogik amaliyot) materiallarni qayta ishlashning matematik va statistik usullari qo'llanildi. Tajriba va nazorat guruhlarini tuzildi. Tadqiqotning har bir bosqichida diagnostika o'tkazildi va olingan natijalar

umumiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga kasbiy tayyorlashning tashkiliy-metodik shartlarini aniqlash maqsadida biz bakalavrlarni professional tayyorlashning mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini belgiladik.

L.P.Fedosova "mezon" tushunchasini biror narsani baholash, aniqlash yoki tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan belgi – baholash o'lchovi sifatida ko'rib chiqadi. Professional tayyorgarlik mezonlari obyektiv, qiyoslanadigan bo'lishi, muhim ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi va ma'lum vaqt oralig'ida barqarorlikka ega bo'lishi kerak. Bir qator mualliflar (L.Y.Balashov, V.A.Belikov, V.I.Zagvyazinskiy va b.) mezonni o'rganilayotgan obyektning "uning holati va funksionallashuvi hamda rivojlanish darajasi haqida hukm chiqarishga imkon beradigan xususiyati" sifatida ko'rib chiqadilar [2;67]

Pedagogik entsiklopediyada "mezon" (yunoncha *kriterion* – hukm chiqarish vositasi) quyidagi ma'nolarga ega: biror narsani baholash, aniqlash yoki tasniflash uchun asos bo'luvchi belgi; hukm, baho o'lchovi[4;].

Pedagogik adabiyotlar nuqtai nazaridan, "mezon" tushunchasi imkoniyatlarni o'lchash va tanlash vositasi sifatida ta'riflanadi. Bu yondashuv mezon boshqalarga nisbatan imkoniyatlarni amalga oshirish darajasini aniqlashga yordam beradi, o'lchov yoki tanlovning nisbiy ahamiyatini belgilaydi va mavjud imkoniyatlarni amalga oshirish darajasini tekshirish va baholash uchun standart bo'lib xizmat qiladi deb taxmin qiladi.

V.P.Sergeyevaning tadqiqotlarida "mezon" tushunchasi "biror hodisaning boshqa hodisalar orasidagi holati, joylashuvini belgilovchi belgi; o'lchov birligi; subyektning biror predmet yoki hodisaga munosabati" sifatida ko'rib chiqiladi"[5;22].

Izohli lug'at o'lchovni o'lchov birligi biror narsa amalga oshiriladigan yoki namoyon bo'ladigan chegara sifatida belgilaydi.

"O'lchov" va "mezon" lug'at ta'riflarining qiyosiy tahlili ushbu atamalarda yagona semantik komponentni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: o'lchov, me'yor, o'lcham[1;54].

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz "mezon" ni nafaqat tashqi o'lchov, ma'lum bir o'lchov, namuna, etalon sifatida, uning yordamida baholash amalga oshiriladi, balki ushbu predmet yoki obyekt tavsiflanadigan va baholanadigan farqli belgi sifatida ham belgilaymiz.

Ko'rsatkichlar ilmiy-pedagogik adabiyotlarda "ma'lum bir mezonning shakllanganligining miqdoriy yoki sifat xarakteristikalarini"[3;37] sifatida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot ishimiz jarayonida olingan xulosalarga asoslanib, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligi mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

* **motivatsion mezon** - shaxsning o'z kasbiy faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan paradigma asosida takomillashtirishga yo'nalganligi;

* **kognitiv mezon** - tyutorlik faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beruvchi nazariy bilimlarning mavjudligi;

* **faoliyatga doir mezon** - tyutorlik faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalar majmuini shakllanganligi.

* **refleksiv mezon** - bo'lajak o'qituvchilarni o'z-o'zini tahlil qilish, tyutorlik faoliyatiga tayyorligini nazorat qilish.

Tahlil va natijalar

Tajriba-sinov ishlarida 2022-2025-o'quv yillarida Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti pedagogika ta'lim yo'nalishining 1-3 kurs 434 nafar respondent-talabasi va tyutorlari, shuningdek, 9 nafar professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi asoslovchi bosqichda (2022-2023 o'quv yili) tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi. Oliy ta'lim muassasalarida mavjud o'quv-uslubiy ta'minot, jumladan, malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari, o'quv qo'llanmalar va dasturlar o'rganildi. O'quv jarayonlaridagi mavjud holat va tyutor va talabalarning tyutorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasi aniqlandi. So'rovnoma, kuzatuv, intervyu va testlar orqali talabalarda tyutorlik faoliyatiga doir bilimlarning shakllanganlik darajasi o'rganildi. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shartlari va qonuniyatlari aniqlandi. Tadqiqot yo'nalishi aniqlanib, elektiv kurs va maxsus o'quv-seminar dasturi ishlab chiqildi.

Ikkinchi shakllantiruvchi bosqichda (2023-2024 o'quv yili) talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhlar uchun maxsus ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar tashkil etildi. "Tyutorlik faoliyati asoslari" nomli elektiv kurs ishlab chiqilib, unga: tyutorlik faoliyatining rivojlanish tarixi, tyutorlik faoliyati bosqichlari, funksiyalari, tyutorlik faoliyatida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar va innovatsion texnologiyalar hamda psixologik-pedagogik diagnostika metodlari mavzulari kiritildi. Ushbu kurs tyutorlik faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini o'z ichiga olgan holda, Blended learning texnologiyasi asosida tashkil etildi. Mashg'ulotlar davomida interfaol ta'lim, loyihaviy ta'lim, keys-stadi, esse, portfolio texnologiyalaridan foydalanildi. Keys-stadi texnologiyasi talabalarga muayyan vaziyatlarni tahlil qilishni va ularga yechim topishni o'rgatgan bo'lsa, loyihaga asoslangan o'qitish ularga individual ta'lim dasturi va individual

o'rganish trayektoriyasini ishlab chiqish, sinfdan tashqarida ma'naviy va ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish va tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish imkonini berdi. Esse texnologiyasi bo'lajak tyutorlar faoliyatida muammoni aniqlash va unga optimal echim topishga xizmat qildi. Portfolio texnologiyasi bo'lajak tyutorning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlari natijasini ko'rsatish bilan birga, talabalarning individual rivojlanishlari uchun motivatsiya bo'lib xizmat qildi.

Tajriba guruhlarida qo'llanilgan texnologiyalar talabalarning tyutorlik qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi va o'zlarining samarali va zamonaviy o'qitish usullari ekanligini isbotladi. Tadqiqot davomida tyutorlar uchun "Ustoz tyutor" o'quv seminari tashkil etildi. Seminarining yakuniy sessiyasi "Metodologiya kuni" sifatida o'tkazildi, unda tyutorlikdagi professional yutuqlar namoyish etildi. "Metodologiya kuni" dasturi mahorat darslari, metodologik intensiv mashg'ulotlar, metodologik mashqlar, ochiq o'qitish soati taqdimoti va yosh tyutorlarning yutuqlari ko'rgazmasini o'z ichiga oldi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim amaliyotiga joriy qilinishi tavsiya etiladi, chunki ular o'quv jarayonining sifatini oshirish va bo'lajak o'qituvchilarni tyutor sifatida faoliyat yuritishini ta'minlashga yordam beradi. O'quv yili oxirida oraliq nazorat ishlari o'tkazilib, tajriba va nazorat guruhlarining natijalari taqqoslandi[7;54].

Uchinchi yakunlovchi bosqichda (2024-2025 o'quv yili) tajriba-sinov ishlari davom ettirilib, talabalarning tyutorlik faoliyatiga tayorlik holati va tizim samaradorligi aniqlandi. Dastlabki, oraliq va yakuniy natijalar umumlashtirilib, tajriba va nazorat guruhlarining natijalari matematik-statistik tahlil qilindi. Tajriba asosida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Modelni amalga oshirishda tadqiqot ishida keltirib o'tilgan kompleks pedagogik shart-sharoitlarga tayanildi. Ushbu shart-sharoitlar kompetensiyaviy yondahuv, tyutorlar faoliyati va tajriba-sinov uchun 3 ta tajriba va 3 ta nazorat guruhlarini shakllantirildi.

Tajriba guruhlarida uch yil davomida quyidagi ta'limiy-dagnostik ta'minot qo'llanildi:

1. "Tyutorlik faoliyati asoslari" elektiv kursi sillabusi.
3. "Tyutorlikka ilk qadam", "Mahoratli tyutor" o'quv-seminarlari.
4. "YOU_TYUTOR" nomli mualliflik platformasi.
5. "Tyutorlik texnologiyalari va metodikalari" nomli o'quv-uslubiy ko'llanma
6. "Tyutorlik faoliyatining nazariy-metodik asoslari" nomli monografiya.
7. "Bo'lajak o'qituvchilar uchun tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mexanizmlari" nomli monografiya

7. N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov va G.M. Manuylov tomonidan taklif qilingan bo'lajak tyutorlarning kommunikativ va tashkiliy moyilliklarini aniqlash metodikasi.

8. “Bo'lajak o'qituvchilarda tyutorlik kompetensiyalarini aniqlash” mualliflik anketasi[7;89].

Pedagogik tajriba-sinov davomida qayd qilingan nazorat ishlarining o'zlashtirish natijalari tajriba va nazorat guruhlarida kesimida matematik-statistik tahlil qilindi. Olingan natijalarning statistik tahliliga ko'ra samaradorlik mavjud bo'lib, ularning xulosalariga ko'ra N_1 gipotezaning qabul qilinishi tajriba yakunidagi olingan natijalarga ko'ra umumiy samaradorlik 1,143 barobarga, yani 14,3% ga yuqori ekanligi statistik usullar bilan isbotlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligini yuqori darajaga ko'tarish ularning pedagogik tafakkurini rivojlantirish va oxir-oqibat o'quvchilarning muvaffaqiyati uchun zamin yaratadi, deb ta'kidlash joiz.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 1) bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy va metodologik asoslarini o'rganishga qaratilgan loyihalarni ishga tushirish;
- 2) oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlaydigan bakalavriat va magistratura dasturlarini tashkil etish;
- 3) talabalar uchun yozgi tyutorlik maktablarini, shuningdek, tizimli va doimiy ilmiy va metodologik seminarlarni tashkil etish;
- 4) tyutorlar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;
- 5) milliy qadriyatlarga mos keladigan innovatsion tyutorlik texnologiyalarini ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish[6;101].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андриади Ф.Н., Темина С.Ю. Педагогический словарь: учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2025. – 54 с.
2. Белякова Н.Ю. Исторический опыт тьюторства в британской высшей школе // Высшее образование сегодня, 2006. №8. – С.64– 68.
3. Гайманова Е.В., Храпков И.Б. Тьюторское сопровождение студентов Института психоанализа. Методический комплекс. М., 2009. –37с.
4. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b
5. Сергеева В.П. Технология деятельности классного руководителя в воспитательной системе школы. Монография. М.: ЦГЛ, 2004. – 22 с.

6. O'rinova N.M., Muxammadjonova M./Tyutorlik texnologiyalari va metodikalari/O'quv- uslubiy qo'llanma/ FDU "Nusxa ko'paytirish bo'limi". Farg'ona, 2024. – 105 b.

7. O'rinova N.M., Abdullayev S Tyutorlik faoliyatining nazariy- metodik asoslari"/Monografiya.F.: FDU "Nusxa ko'paytirish bo'limi". Farg'ona, 2024. – 111 b.